O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.L. Muxamedov
_______________
2024 yil "__" ________

# MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 200 000 – San’at va gumanitar fanlar |
| Ta’lim sohasi: | 220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari) |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60220300 – Tarix |

**Chirchiq – 2024**

<table>
<tr><th colspan="2">Fan/modul kodi<br>MT1308</th><th>O‘quv yili<br>2025-2026</th><th>Semestr<br>3</th><th colspan="2">ECTS - Kreditlar<br>5</th></tr>
<tr><th colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</th><th colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</th><th colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4</th></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Manbashunoslik va tarixshunoslik</td><td>60</td><td>90</td><td>150</td></tr>
</table>

2.

## I. Fanning mazmuni

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarda manbashunoslik va tarixshunoslikning vazifasi, predmeti va obyekti, tadqiqot va manbalarning turlarini va tadqiqotlar natijalarini jamlash, manbashunoslikning nazariy masalalarini, manbalarni ichki va tashqi tahlil qilishni hamda manbalarni har tomonlama ilmiy-qiyosiy tahlil qilishga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**Fanning vazifasi** – talabalarga manbalar va tarixiy tadqiqotlarning manbashunoslikdagi va tarixshunoslikdagi o‘rni, tarix bilimini targ‘ib qilishning shakllari, O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi bilan bog‘liq manbalar haqida umumiy ma’lumot olishi, ta’lim jarayonida manbalar va ilmiy tadqiqotlardan kichik ilmiy ishlarida foydalanishni o‘rgatishdan iborat.

## II. Nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

**1-mavzu. Manbashunoslik fani predmeti, maqsad va vazifalari**

Tarixiy tadqiqot uchun manbalarni turkumlashning ahamiyati. Turkumlashdagi asosiy tamoyillar: manbalarni mazmuniga, kelib chiqishiga va yo‘nalishiga qarab ajratish. Tarixiy manba. Manbalarning asosiy turlari: moddiy yodgorliklar, ma’naviy yodgorliklar. Tarixiy manbalarning shakl va mazmuniga qarab guruhlarga bo‘linishi: moddiy (ashyoviy) manbalar, etnografik manbalar, lingvistik manbalar, og‘zaki manbalar (folklor). Yozma manbalar. Yozma manbalarning asosiy xillari.

Adabiy manbalar (yilnomalar, xronikalar Epik yodgorliklar. Aktlarga oid hujjatlar (yorliqlar, aktlar, xatlar, yuridik-qozixona hujjatlari). Arxiv manbalari. Normativ va ijroiya hujjatlari; statistik materiallar tarixiy manba sifatida. Jamoat tashkilotlari hujjatlari tarixiy manba sifatida. Diplomatik hujjatlar, memuarlar, davriy matbuot.

**2-mavzu. Manbashunoslikning metodologik mezonlari**

Manbashunoslik sohasidagi tadqiqot. Manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyati. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari.

Manbalarni tahlil qilish uslublari. Manbalarni tashqi va ichki belgilariga qarab tahlil qilish. Manbalarni umumiy tavsiflash va alohida bir manbani

tadqiq etish. Matnni aniqlash. Asl manba. Manba yozilgan davr va joy, unda tarixiylikning in'ikosi. Manbaning yaratilish tarixi shart-sharoit va undagi tarixiy haqqoniylik mezoni (hujjatlarda tarixiylik deyarli real aks etgan bo'ladi). Asl manbadan ko'chirilgan nusxalar. Nusxalarning asl manbaga yaqinligini aniqlash muammolari.

**3-mavzu. O'rta Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixi yozma manbalari**

Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol, Naqshi Rustam, Doro I, Ayritom bitiklari). Avesto-qadimiy yozma yodgorlik; Avestoda O'rta Osiyo tavsifi. Qadimgi Hind manbalarida O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar. Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mualliflari asarlari O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixiga oid muhim manba: Gerodot, Diodor, Aristotel, Pompey Trog, Arrian, Kvint Kursiy Ruf, Gay Pliniy, Plutarx, Polibiy, Strabon, Klavdiy Ptolemey asarlari.

**4-mavzu. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixi yozma manbalari**

Xitoy solnomalari O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qadimgi manba sifatida. Xou-Xan-shu ("Keyingi Xan sulolasi tarixi"), Bey-shu ("Shimoliy sulolalar tarixi"), Suy-shu ("Suy xonadoni tarixi"). Qadimgi turkiy manbalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida. runa bitiklari: Lena-Baykalbo'yi, Yenisey, Mongoliya, Oltoy, Sharqiy Turkiston va O'rta Osiyodan topilgan bitiklar (To'nyuquq bitigi, Kultegin bitigi, Bilga xoqon bitigi, Ongin bitigi). Sug'd hujjatlari o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manba. Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar, Afrosiyobdan topilgan sug'd hujjatlari, Sharqiy Turkistondan topilgan sug'd hujjatlari va boshqalar.

**5-mavzu. O'rta Osiyo tarixiga oid VII-VIII asrlarda yaratilgan manbalar (Islom diniga oid yozma manbalar)**

Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni Karim va uning tafsirlari; hadislar va ularning sharhlari; Muhammad payg'ambar va xalifalar hayotiga oid asarlar. Fiqhga oid manbalar. Arab tilida yozilgan turli fan sohalariga oid manbalar (filologiya, lug'atlar, falsafa, tibbiyot, geografiya). Arab tilidagi tarixiy asarlar (al-Madoiniy, Tabariy, al-Balazuriy, al-Ya'qubiy, Beruniy asarlari). Fanlar tasnifiga oid asarlar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh al-Xorazmiy). IX-XIII asrlar davomida arab tilidagi manbalarning ko'payishi.

Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar. Forsiy matnlardagi xat turlari. Xattotlik kasb sifatida. Forsiy yozma merosning ko'payib borishi. Eng qadimgi forsiy qo'lyozmalar (islomga oid manbalar; turli fan sohalariga oid asarlar).

Turkiy tillardagi yozma merosning shakl jihatdan tarkibi; nazmda yozilgan asarlar, islomga oid asarlar, tarjima asarlar (arab va forsiy tillardan), sharhlar.

**6-mavzu. O'rta Osiyoning IX-XIII asrlar tarixiga oid yozma manbalar**

| | |
|---|---|
| | Al-Madoiniy "Axbor al-xulafo", al-Ya'qubiy "Kitob al-buldon", Balazuriy "Kitob futuh al-buldon", Tabariy "Tarix ar-rusul va-l-muluk", Ibn Fazlon "Risola", al-Mas'udiy "Muruj az-zahab", Utbiy "Tarixi Yaminiy", Abu Abdulloh al-Xorazmiy "Mafotih al-ulum", Abu Rayhon Beruniy "Osor al-boqiya", Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'at at-turk", Sam'oniy "Kitob al-ansob", Ibn al-Asir "Al-Komil fi-t-tarix", Yoqut Hamaviy "Mu'jam al-buldon", Muhammad Nasaviy "Sirat as-sulton Jaloliddin", Jamol Qarshiy "Mulhaqat as-suroh". O'rta Osiyo IX-XV asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar: Narshaxiy "Buxoro tarixi", "Hudud ul-olam", Nizomulmulk "Siyosatnoma", Nizomi Aruzi Samarqandiy "Chor maqola", Gardiziy "Zayn ul-axbor", Abulfazl Bayhaqiy "Tarixi Mas'udiy", Avfiy "Javomi' al-hikoyot", Juvayniy "Tarixi jahongushoy".<br><br>**7-mavzu. Sharq qo'lyozmalari xazinalari: holati, saqlash usullari va manbaviy ahamiyati**<br>Qo'lyozma asarlar tarixidan va ularning hududiy qamrovi. Arab tilidagi yozma meros va uning tarqalishi. Qo'lyozmalarning jahon bo'ylab tarqalish sabablari. Sharq qo'lyozmalarining Yevropaga tarqalishi. Sharq qo'lyozmalarining turli mamlakatlardagi miqdoriy ko'rsatkichi. Qo'lyozmalar xazinalari: Misr, Eron, Buyuk Britaniya, Germaniya, Turkiya, Rossiya, O'zbekiston. Sharq qo'lyozmalarini tavsiflash va kataloglar chop etilishi tarixidan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasi haqida umumiy ma'lumotlar.<br><br>**8-mavzu. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalar**<br>Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar: Nizomiddiy Shomiy "Zafarnoma", Muiniddin Natanziy "Muntaxab at-tavorix", Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma", Abdurazzoq Samarqandiy "Matla as-sa'dayn", Mirxond "Ravzat as-safo" va boshqa asarlardagi ma'lumotlar.<br><br>**9-mavzu. O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid yozma manbalar**<br>O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid manbalar asosan fors-tojik tilida bitilgan. Bu davrdagi yozma manbalar sirasiga Mulla Shodiyning "Fathnoma", Fazlulloh ibn Ruzbexonning "Mehmonnomai Buxoro", Xondamirning "Habib as-siyar", Zayniddin Vosifiy "Badoye' ul-vaqoye'", Mirzo Muhammad Haydar "Tarixi Rashidiy", Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma", Mahmud ibn Valiy "Bahr ul-asror", Xoja Samandar Termiziy "Dastur al-muluk", Muhammad Yusuf Munshiy "Tarixi Muqimxoniy", Mir Muhammad Amin Buxoriy "Ubaydullanoma", Abdurahmon Davlat "Tarixi Abulfayzxon".<br><br>**10-mavzu. O'rta Osiyoning XVII-XIX asrlar tarixiga oid mahalliy yozma manbalar**<br>Mir Muhammad Salim "Silsilat as-salotin", Muhammad Vafo Karminagiy "Tuhfai xoniy", Mir Olim Buxoriy "Fathnomayi sultoniy", |

Axmad Donish "Navodir al-vaqoye'", Abduazim Somiy "Tarixi salotini mang'itiya", Mirzo Salimbek "Tarixi Salimiy", Muhammad Solih "Tarixi jadidayi Toshkand", Niyoz Muhammad Xo'qandiyning "Tarixi Shohruxiy" asarlarini kiritish mumkin.

O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalarga esa, muallifi noma'lum "Tavorixi guzida" ("Nusratnoma"), Muhammad Solih "Shayboniynoma", Zahiriddin Bobur "Boburnoma", Abulg'ozi Bahodurxon "Shajarayi tarokima", "Shajarayi turk va mo'g'ul", Munis va Ogahiy "Firdavs ul-iqbol" va Mirzo Olim Toshkandiyning "Ansob as-salotin" asarlari.

**11-mavzu. O'rta Osiyo tarixiga oid rus va yevropa tillaridagi manbalar**

O'rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan Yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar sayyoh va elchilarning kundaliklari. Marko Polo, Rui Gonsales de Klavixo va Antonio Jenkinson kundaliklari. XVII-XVIII asrlar rus va yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi I.D. Xoxlovning ma'lumotlarida ("Kniga Bolshomu cherteju"); B.A. Pazuxin va S.I. Pazuxin ma'lumotlarida; Florio Benevini axborotida; V.N. Tatishev "Leksikon geograficheskoy i politicheskoy"; D. Gladishev va Muravin ma'lumotlarida; F. Yefremov safarnomasi, T. Burnashevning O'rta Osiyoga safari xotiralari; F. Nazarov safarnomasi; N. Muravev ma'lumotlari; Ye.K. Meyendorf safarnomasi.

**12-mavzu. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixiga oid manbalar**

Yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar sayyoh va elchilarning kundaliklari. Rus va yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi. "Turkiston arxeolog havaskorlari to'garagi", "Kesh arxeologik-topografik ekspeditsiya"si kabi ilmiy jamolar tomonidan muntazam nashr etilgan to'plamlar va boshqalarda e'lon qilingan maqolalar. Rossiya Sharqshunoslari tomonidan e'lon qilingan tadqiqotlarda O'rta Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan istilo qilinishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi tarixi.

**13-mavzu. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hujjatlari (O'z MA)**

Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hujjatlari (O'z MA), Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi materiallari O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida. Turkistonni o'rgangan rus olimlarining asarlari. Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi materiallari tarixiy manba sifatida. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkistonga oid statistik ma'lumotlar, arxiv materiallar va davriy matbuot materiallarining tarixiy manba sifatida ahamiyati.

**14-mavzu. O'zbekistonning XX asr tarixiga oid manbalar**

Rossiyadagi fevral inqilobi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarni aks

ettiruvchi materiallar, Oktabr voqealaridan keyin Turkistonda Sovet hukumati tashkil topishi va yangi davlat tarixi bilan bog'liq manbalar. Sovet hokimiyatining dekretlari. Sovetlar s'ezdlarining qarorlari, partiya tashkilotlarining hujjatlari manba sifatida. Turkistonda muxtoriyatchilik va istiqlolchilik harakati tarixiga oid hujjatlar tarixiy manba sifatida. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish tarixiga oid hujjatlar, O'zbekistonning 1925-1941-yillardagi tarixini yorituvchi manbalar; qatag'onlar tarixi aks etgan hujjatlar, 1941-1945-yillar urushi tarixiga oid materiallar, O'zbekistonning 1945-1991 yillardagi tarixiga oid hujjatlar, shuningdek, statistik to'plamlar va ish yuritish hujjatlari O'zbekistonning XX asr tarixiga oid muhim tarixiy manba sifatida.

**15-mavzu. O'zbekistonning eng tarixiga oid manbalar**

Mustaqil O'zbekiston davlatining tashkil topishiga oid materiallar. O'zbekiston Prezidenti asarlari mustaqil O'zbekiston tarixi bo'yicha asosiy manba. O'zbekistonda demokratik davlat tizimini barpo etishga doir hujjatlar tarixiy manba sifatida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni nashrlari, O'zbekiston Oliy Majlis hujjatlari muhim tarixiy manba. Mustaqillik davri turli hujjatlari, statistik ma'lumotlar, nashr materiallari, matbuot materiallari va boshqa ma'lumotlar tarixiy manba sifatida.

## III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Manbashunoslik fani predmeti, maqsad va vazifalari
2. Manbashunoslikning metodologik mezonlari
3. O'rta Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixi yozma manbalari
4. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar tarixi yozma manbalari
5. O'rta Osiyo tarixiga oid VII-VIII asrlarda yaratilgan manbalar (Islom diniga oid yozma manbalar)
6. O'rta Osiyoning IX-XIII asrlar tarixiga oid yozma manbalar
7. Sharq qo'lyozmalari xazinalari: holati, saqlash usullari va manbaviy ahamiyati
8. Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid yozma manbalar
9. O'rta Osiyoning XVI-XVII asrlar tarixiga oid yozma manbalar
10. O'rta Osiyoning XVII-XIX asrlar tarixiga oid mahalliy yozma manbalar
11. O'rta Osiyo tarixiga oid rus va yevropa tillaridagi manbalar

12. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Turkiston tarixiga oid manbalar
13. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi hujjatlari (O‘z MA)
14. O‘zbekistonning XX asr tarixiga oid manbalar
15. O‘zbekistonning eng tarixiga oid manbalar

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'limdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari fan dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo‘shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o‘z ichiga oladi.

Mustaqil ta’limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo‘yilgan masalani o‘rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to‘liq ochib beriladi.

## V. Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Manbashunoslikning fan sifatida rivojlanishi
2. Tarixiy, nazariy va amaliy manbashunoslik
3. Manbashunoslik sohasining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi
4. Yozma manbalarning asosiy xillari
5. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar
6. Arab yozuvidagi turkiy yozma meros
7. Qo‘lyozmalarning jahon bo‘ylab tarqalish sabablari
8. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti Sharq qo‘lyozmalari xazinasi
9. Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar
10. O‘rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan yevropa tillaridagi yozma ma’lumotlar
11. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasi materiallari O‘rta Osiyo tarixiga oid manba
12. Avesto. Behustun, Persepoldagi yozuvlar - qadimgi epigrafika yodgorligi sifatida
13. Sharq qo‘lyozmalari va ularning sivilizatsiya tarixidagi o‘rni
14. XII-XIV asrlarda O‘rta Osiyoda tarixiga oid xotiralar muhim manba sifatida
15. Ilmiy tadqiqotlarning turlari
16. O‘rta Osiyo xonliklari tarixi xorijiy tarixshunoslikda

17. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O‘rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar
18. XIX-XX asrning boshlarida Rossiya olimlari tomonidan O‘rta Osiyoning o‘rganilishi
19. Mustaqillik yillarida O‘zbek davlatchiligi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarning olib borishi
20. Mustaqillik yillarida O‘rta Osiyo xonliklarida tarixining o‘rganilishi
21. Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi
22. Mustaqillik yillarida ilmiy nashrlarga O‘zbekiston tarixining yoritilishi
23. Tarixiy bilimlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. (Jamiyatning tarixiy bilimlarga bo‘lgan ehtiyojining paydo bo‘lishi. Xalq og‘zaki ijodiyoti. Yozuvning paydo bo‘lishi. Davlat va tarixiy bilimlar vazifasining o‘zgarishi
24. Xorazmshoh – Anushteginlar sulolasi tarixshunosligi
25. Turkiy va eroniyzabon xalqlar o‘rtasidagi madaniy munosabatlar tarixshunosligi
26. Turk-so‘g‘d simbiyozi tarixshunosligi
27. Turk hoqonligining vujudga kelishi tarixshunosligi
28. Turkistonda milliy ozodlik harakatini yoritishning tarixshunosligi
29. Turkistonda Mustabid Sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixshunosligi
30. Somoniylar davlati tarixshunosligi
31. Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida tarixiy izchillik prinsiplari tahlili
32. Rui Gonseles de Klavixo “Kundalik”larining o‘rganilishi
33. O‘zbekistonda tarixni o‘rganishda jahon tarixshunosligining ahamiyati
34. O‘zbekistonda 1985-1991 yillarda tarix fani
35. O‘zbek xalqining etnik shakllanish tarixshunosligi
36. O‘rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tarixshunosligi
37. O‘rta Osiyo masalasida Angliya va Rossiya o‘rtasidagi raqobat tarixshunosligi
38. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarini tarixiylik nuqtai-nazaridan o‘rganish
39. Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarai Xorazmshohiy” asarida Turkiston istilosi tarixining yoritilishi
40. Muhammad Yusuf Munshiy “Tarixi Muqimxon” asarining ahamiyati
41. Qo‘qon xonligi tarixshunosligi (Fazliyning “Umarnoma”, Muhammad Hakimxonning “Muntaxab ut-tavorix”, Toshkandiylar Attor Ho‘qandiy, Muhammad Aziz Marg‘inoniy asarlarida xonlik tarixi masalalari yoritilishi)
42. XVI-XVII asrlardagi tarixiy-jo‘g‘rofiy asarlar
43. Ibn Battutaning sayohati xotiralari
44. Tarix fani va totalitar tuzum. “Turg‘unlik va qayta qurish” davri tarixshunosligi
45. XI-XII asr tarixchilarining tarixiy-siyosiy dunyoqarashi (Abu Nasr Utbiy, Abu Nasr Gardiziy asarlari. Abul Fazl Bayhaqiy (995-1077)ning “Tarixi

| | |
|---|---|
| | Ma'sudiy" asari) |
| 3. | **VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>• manbalarni turkumlashdagi asosiy tamoyillar, manbashunoslik va tarixshunoslikning rivojlanish bosqichlari, tarixshunoslikda tadqiqotlarning tahlil qilish usullari, muammoviy tarixshunoslik masalalalari, tadqiqotlarning metodologiya masalalari, og'zaki tarix, muammoviy tarixshunoslik, O'rta Osiyoning tarixiga oid manbalar va tadqiqotlar, Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fanidagi tadqiqotlarga haqida ***bilishi*** kerak;<br>• talaba O'rta Osiyo tarixiga oid xorijiy tillardagi yozma manbalarni tahlil qilish. O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi tarixiga oid manbalarni o'rganish, arab yozuvidagi dastlabki manbalarni tadqiqot ishlarida qo'llay olish, manba va tadqiqotlarni mazmuniga ko'ra guruhlarga bo'la olish, tadqiqotlarda mavzuning o'rganilish darajasini tadqiq qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi*** kerak;<br>• talaba tarix fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, manbashunoslik va tarixshunoslikning predmeti, obyekti va vazifalarini farqlay olish, nazariy manbashunoslik, amaliyotda tarixiy manbalarning va tadqiqotlarning asosiy turlarini ajrata olish, manbalarni o'rganish: aniqlash, tiklash, tahlil qilishga oid ***malakalariga ega bo'lishi*** kerak. |
| 4. | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar |
| 5. | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savol javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur. |
| 6. | **IX. Adabiyotlar**<br>1. S. A. Toshtemirova "Tarixshunoslik" " Zebo- Print" T-2022<br>2.Alisher Doniyorov "Markaziy Osiyo xalqlari Tarixshunosligi "Nif MSh" T-2020<br>3. S. A. Toshtemirova, D. B Ahmadjonov " Markaziy Osiyo xonliklari Tarixshunosligi " Zebo Print" T-2022<br>4. Alisher Doniyorov "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi " (yaxshi va eng yangi davr) " Book Trade" T-2022<br>**Asosiy adabiyotlar** |

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. – T: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T: O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – T: O'zbekiston, 2016.
5. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Т., 1997.
6. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников, географов и ученых XVI – первой половины XIX века / Составитель Б.В.Лунин. – Т.: Фан, 1988.
7. Источниковедение: Теория. История. Метод: Учебное пособие / И.Н.Данилевский, В. В.Кабанов и др. – М., 1998.
8. Ключевский В.О. Курс лекций по источниковедению: Соч. в 8-и томах. – М., 1959.
9. Сагдуллаев А. Қадимги Ўзбекистон илк ёзма манбаларда. – Т: Ўзбекистон, 1996.
10. Саидбобоев З. Европада Ўрта Осиёга оид тарихий-картографик маълумотлар(XVI-XIX асрлар). – Т: Фан, 2008.
11. Ўзбекистон тарихи (хрестоматия). 3-жилд. – Т.: "Fan va texnologiya", 2014.
12. Ўзбекистон тарихига оид манба ва тадқиқотлар (XIX-XX аср бошлари) / Масъул муҳаррир: Д.Х. Зияева. – Т: Nurafshon business, 2022.
13. Ahmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari. – T: O'qituvchi, 2001.
14. Manbashunoslik. (Darslik) // Masul muharrir D.Alimova. – T: Turon-Iqbol, 2019.
15. O'zbekiston tarixi (O'zbekiston tarixi va manbalari). Xrestomatiya. II-VI jildlar. – T: "O'zbekiston" NMIU, 2023.
16. Алимова Д.А. История как история, история как наука. Т. I. История и историческое сознание. – Т: Ўзбекистон, 2008.
17. Насруллаев Н. Манбашунослик асослари. Дарслик. – Т: Navro'z, 2020.

**Axborot manbalari**

www.pedagog.uz (Respublika pedagogika talim muassasalari portali)
www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti)
www.edu.uz (O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali)
www.unilibrary.uz (Yagona elektron kutubxona axborot tizimi)
www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)
www.ziyonet.uz (Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portal)

| | |
|---|---|
| 7. | **Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil "24" august dagi qarori bilan tasdiqlangan** |
| 8. | **Fan/modul uchun ma'sul:**<br>O.H. Jaynarov – CHDPU, "Tarix" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |
| 9. | **Taqrizchilar**:<br>Z.A. Saidboboyev – O'zMU, tarix fakulteti "Manbashunoslik va arxivshunoslik" kafedrasi professori, tarix fanlari nomzodi<br>Sh.B. Jumayeva – CHDPU, "Tarix" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) |